

"Mustaqil o'qilgan asarlar yuzasidan suhbat. Pirimqul Qodirovning "Yulduzli tunlar " romanida tarixiy va badiiy haqiqat" mavzusi yuzasidan o'tkazilgan qiziqarli ochiq dars

Adabiyot, san'at va musiqa, shubhasiz, kishining aqliy, ijodiy va shaxsiy o'sishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham barcha ta'lim muassasalarida mazkur fanlarning samarali o'qitilishiga alohida e'tibor qaratilmoqda

Xususan, SamDCHTI akademik litseyida ham turli madaniy-ma'rifiy tadbirlar, ochiq dars va mashg'ulotlar muntazam ravishda o'tkazib kelinmoqda. Jumladan, **204-guruh o'quvchilari** ishtirokida adabiyot fanidan **"Mustaqil o'qilgan asarlar yuzasidan suhbat. Pirimqul Qodirovning "Yulduzli tunlar " romanida tarixiy va badiiy haqiqat"** mavzusi yuzasidan o'tkazilgan qiziqarli ochiq dars so'zimiz isbotidir.

Fan doirasida o'tkazilgan mazkur darsda "To'g'ri-noto'g'ri", "Yulduzli osmon", "Gallaktikaga sayohat", "O'tmish va kelajak ko'prigi ", "Sirli yo'llar", "Sharada- she'riy topishmoq", "Rebus", "Rasmlar tilga kirganda", "Sehrli tuxum" kabi metodlardan foydalanildi. Shuningdek "Agrar. Yo hayot, yo mamot" bobidan parcha o'quvchilar tomonidan mahorat bilan sahnalashtirilganligi barchada o'zgacha taassurotlar qoldirdi va faol ishtirok etgan o'quvchilar ,, Faxriy yorliq " bilan taqdirlandi.









SamDChTI akademik litseyi axborot xizmati